XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-dekabr VII-2-018-5-71-K/24 Karmana tumani

Karmana tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq hamda Karmana tumani hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 156-5-71-F/24-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2024-yil 26-sentabrdagi 01-29/107-sonli yig‘ilish bayoniga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi mutaxassislari tomonidan Karmana tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalariga ko‘ra tumanning jami maydoni 99374,91 gektar, tumanning jami perimetri 428719,6 metr ekanligi aniqlandi.

Shundan: shaharcha va qishloqlar kesimida,

Karmana shaharchasining jami maydoni 753,1 gektar, perimetri 15189,5 metr ekanligi;

Malikrabot shaharchasining jami maydoni 274,98 gektar, perimetri 11836,7 metr ekanligi;

Hazora qishlog‘ining jami maydoni 22711,63 gektar, perimetri 99640,3 metr ekanligi;

Uyrot qishlog‘ining jami maydoni 1864,97 gektar, perimetri 25313,8 metr ekanligi;

Do‘rman qishlog‘ining jami maydoni 4951,03 gektar, perimetri 43814,9 metr ekanligi;

Narpay qishlog‘ining jami maydoni 61172,53 gektar, perimetri 143299,7 metr ekanligi;

Jaloyir qishlog‘ining jami maydoni 5000,0 gektar, perimetri 43840,3 metr ekanligi;

Yangiariq qishlog‘ining jami maydoni 2646,67 gektar, perimetri 45784,6 metr ekanligi;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to’g’risida” gi 2020-yil 28-avgustdagi O‘RQ-635-sonli nizomining

10, 27-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq hamda Karmana tumani hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 156-5-71-F/24-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2024-yil 26-sentabrdagi 01-29/107-sonli yig‘ilish bayoniga hamda “Mahaliy davlat xokimiyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23- apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq ham Karmana tumani hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 156-5-71-F/24-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2024-yil 26-sentabrdagi 01-29/107-sonli yig‘ilish bayoni tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. Karmana tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari ko‘ra shaharcha va qishloqlarning chegaralari pirimetri va maydonlari haqqidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralari kartografik chizmasi (sxema) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining qarori mahalliy gazeta ham hokimlikning internetdagi veb-saytida joriy qilinsin.

4. Ushbu qarorni tasdiqlash Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining hamda tuman hokimining qurilish kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya ham ko‘kalamzorlashtirsh masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Sh.Boltayev)ga yuklatilsin.

Kengash raisi ADIZOV VALIJON YUSUPOVICH

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 16-dekabrdagi
VII-2-018-5-71-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Karmana tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari shaharcha va qishloqlarning chegaralari pirimetri va maydonlari haqqinda


MA’LUMOT

№	Ma’muriy-hududiy birliklar nomi	Maydoni (ga)	Chegara uzunligi (metr)
1	Karmana shaharchasi	753,1	15189,5
2	Malikrabot shaharchasi	274,98	11836,7
3	Hazora qishlog‘i	22711,63	99640,3
4	Uyrot qishlog‘i	1864,97	25313,8
5	Do‘rman qishlog‘i	4951,03	43814,9
6	Narpay qishlog‘i	61172,53	143299,7
7	Jaloyir qishlog‘i	5000,0	43840,3
8	Yangiariq qishlog‘i	2646,67	45784,6
	Jami tuman	99374,91	428719,6

Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining
2024-yil 16-dekabrdagi
VII-2-018-5-71-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Karmana tumaning shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash ishlari bo'yicha

SXEMASI



CHegaradosh yerlari izohnomasi

A dan B gacha Navbahor tumani yerlari

B dan D gacha Samarqand viloyati yerlari

D dan A gacha Qiziltepa tumani yerlari

Shartli belgilar

Viloyat chegarasi

Tumanlar chegarasi

Shaharchalar chegarasi

Qishloqlar chegaralari